


**“Open bank” aksiyadorlik jamiyati
Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining
2025-yil 20-oktabrdagi
5-sonli yig‘ilish bayonnomasiga
8 -ilova**



**«OPEN BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATINING
MANFAATLAR TO‘QNASHUVINING OLDINI
OLISH VA UNI BARTARAF ETISH
SIYOSATI**

Toshkent – 2025-yil.

Mazkur "Open bank" aksiyadorlik jamiyatining manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish siyosati" (keyingi o'rinlarda Siyosat deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlariga hamda "Open bank" aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Siyosat "Open bank" aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda Bank deb yuritiladi)da manfaatlar to'qnashuvini yuzaga kelishini oldini olish hamda ehtimoliy (potensial) manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va uni bartaraf etish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Siyosatda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

bank boshqaruv organlari – Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Bank Kuzatuv kengashi va Bank Boshqaruv;

bank xodimlari - Bank bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxslar;

mijoz - Bankning kreditorlari, kontragentlari hamda Bank tomonidan bank xizmatlarini ko'rsatadigan yuridik va jismoniy shaxslar;

manfaatlar to'qnashuvi - Bank (uning boshqaruv organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari)ning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan mijozlarning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat.

3. Bank faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq nizoli vaziyat bank boshqaruv organlari va/yoki xodimlarining xarakati (xarakatsizligi) oqibatida mijozlarning qonuniy huquq va manfaatlari buzilishiga yo'l qo'yilgan taqdirda Bank (uning boshqaruv organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari)ning mulkiy yoki boshqa manfaatlari hamda kreditorlari, kontragentlari, omonatchilari va boshqa mijozlarining mulkiy yoki boshqa manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin.


Bundan tashqari, bank boshqaruv organlari va aksiyadorlar manfaatlari o'rtasida ham korporativ manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin.

4. Mazkur Siyosatda quyidagi manfaatlar to'qnashuvlari yuzaga kelgan holatlar ko'rib chiqiladi:

bank boshqaruv organlari va aksiyadorlarlar o'rtasida (korporativ manfaatlar to'qnashuvi);

bank boshqaruv organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari va mijozlar o'rtasida;

Bank mijozlari o'rtasida;



Bank va uning mansabdor shaxslari, xodimlari o'rtasida (ular tomonidan xizmat vazifalari amalga oshirilish vaqtida).

5. Ushbu Siyosatda belgilangan talab va qoidalar bank boshqaruv organlari a'zolari va egallab turgan lavozimlari darajasidan qat'iy nazar Bankning barcha xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.

Shuningdek, Siyosat talab va qoidalari Bank bilan fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida hamkorlik qiladigan jismoniy shaxslarga ham qo'llaniladi.

6. Mazkur Siyosat Bankka uning mijozlari tomonidan ishonchning oshirilishiga, mijozlarga adolatli xizmat ko'rsatishni ta'minlashga va shaffoflik, ochiqlik tamoyillari asosida korporativ boshqarish standartlariga rioya qilishga qaratilgan.

2-bob. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bosqichlari va tamoyillari

7. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha uni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish samaradorligini oshirish, shuningdek bank boshqaruv organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari hatti-xarakatlarini muvofiqlashtirish maqsadida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bilan bog'liq jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish: manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'lik vaziyat yuzaga kelmasligi uchun zarur chora-tadbirlarni belgilash;

manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va baholash: manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan ehtimoliy vaziyatlarni baholash va doimiy o'rganib borish;

manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish: yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvini to'liq va tezkor bartaraf etish uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

8. Bank manfaatlar to'qnashuvini boshqarishda quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

haqiqiy (real) yoki ehtimoliy (potensial) manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilishning majburiyligi;



mijozlarga ular bilan bitimlar tuzishda teng va adolatli munosabatda bo'lishlik;

bank boshqaruv organlarining, mansabdor shaxslarining va xodimlarining qarorlar qabul qilish vakolatlari Bank tomonidan manfaatlar to'qnashuvini istisno qilish darajasida aniq belgilab berilishi;

har bir manfaatlar to'qnashuvini aniqlashda va uni hal qilishda Bank uchun reputatsion tavakkalchiliklarni alohida ko'rib chiqilishi va baholanishi;

manfaatlar to'qnashuvi va uning hal qilinishi yuzasidan ma'lumotlarning oshkor qilinish jarayonining maxfiyligi;

manfaatlar to'qnashuvini hal qilishda bank boshqaruv organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari manfaatlari muvozanatiga rioya qilinishi;



manfaatlar to'qnashuvi o'z vaqtida oshkor qilinishi va Bank tomonidan hal qilinishi (oldi olinishi)ga sababchi bo'lgan shaxsni manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabar tufayli ta'qib qilinishidan himoya qilinishi.

3-bob. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelish sabablari hamda vaziyatlar

9. Bank faoliyatida manfaatlar to'qnashuvining quyidagi asosiy turlari yuzaga kelishi mumkin:

Bank boshqaruv organlari va aksiyadorlar o'rtasida korporativ manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

- qonunchilik hujjatlari, Bankning ichki qoidalari va hujjatlari talablariga rioya qilmaslik;

- aksiyadorlar manfaatlarining ustuvorlik tamoyiliga rioya qilmaslik;

- yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar vakolatli boshqaruv organlari bilan oldindan kelishilmasdan tuzilishi;

- bank boshqaruv organlari tomonidan Bankning moliyaviy ahvoli yomonlashishiga olib kelishi mumkin bo'lgan qarorlar qabul qilinishi;

- axborotning amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq oshkor qilinmasligi yoxud bank boshqaruv organlari tarkibiga kiruvchi shaxslar tomonidan boshqa tashkilotlar boshqaruv organlarida egallab turgan lavozimlari, boshqa jamiyatlar ulushlari (aksiyalari)ga egaligi to'g'risida axborotni oshkor qilmasligi yoki to'liq bo'lmagan axborot taqdim qilinishi.

Bank boshqaruv organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari va mijozlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

- qonunchilik hujjatlari, Bankning ichki qoidalari va hujjatlari talablariga rioya qilinmaslik;

- aksiyadorlar manfaatlarining ustuvorlik tamoyiliga rioya qilinmaslik;

- amaliy muloqot meyorlari va kasbiy odob-axloq tamoyillariga rioya qilinmaslik;

- Bank tomonidan ham, mijozlar tomonidan ham shartnoma majburiyatlarining bajarilmasligi;


- xodim va/yoki mansabdor shaxs tomonidan shaxsiy foyda olish maqsadida, o'z manfaatlarini mijozning manfaatlaridan afzal ko'rish (mijozga zarar yetkazgan holda).

Bank mijozlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

- qonunchilik hujjatlari, Bankning ichki qoidalari va hujjatlari talablariga rioya qilinmaslik;

- Bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarilmasligi;

- amaliy muloqot meyorlari va kasbiy odob-axloq tamoyillariga rioya qilinmaslik;



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-92</u>
	Sana: "№ 21" <u>oktabr</u> 20 <u>24</u> yil

- xodim va/yoki mansabdor shaxs tomonidan shaxsiy foyda olish maqsadida, bir mijozning manfaatlarini boshqa mijozning manfaatlaridan afzal ko'rish (boshqa mijozga zarar yetkazgan holda).

Bank va uning mansabdor shaxslari, xodimlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

- qonunchilik hujjatlari, Bankning ichki qoidalari va hujjatlari hamda Bank Ustavi talablariga rioya qilinmaslik;

- amaliy muloqot meyorlari va kasbiy odob-axloq tamoyillariga rioya qilinmaslik;

- lavozim majburiyatlarini bajarishda olingan insayderlik axborotidan foydalanib, ham o'zi tomonidan, ham oila a'zolari tomonidan tijorat faoliyatini yuritilishi;

- Bank ish (amaliy) munosabatlarini o'rnatgan boshqa mijoz (hamkor)da mulkiy va/yoki boshqa manfaatlar mavjudligi;

- boshqa tashkilotda rahbar, mansabdor shaxs sifatida o'rindoshlik bo'yicha ishlash yoki uning boshqaruv organlarida ishtirok etilishi;

- xodim tomonidan o'z lavozim majburiyatlaridan shaxsiy foyda olish maqsadida foydalanishga imkon beradigan funksiyalarning qo'shib olib borilishi;

- shaxsiy manfaatlarini ko'zlab Bank manfaatlariga zarar keltirgan holda boshqa tashkilotlarga amaliy imkoniyatlar taqdim qilinishi.

10. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelish sabablari bo'yicha yuqorida sanab o'tilganlar to'liq hisoblanmaydi, balki bank boshqaruv organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari boshqa vaziyatlarda ham manfaatlar to'qnashuvini mavjudligini mustaqil baholashlari lozim.

4-bob. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish

11. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar bank boshqaruv organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan bajarilish majburiy hisoblanadi.

12. Har qanday turdagi manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida bank boshqaruv organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari quyidagilarni amalga oshirishlari shart:

qonunchilik hujjatlari, meyoriy-huquqiy hujjatlar, Bank Ustavi va ichki qoidalari va hujjatlari talablariga rioya qilish;

qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki qoidalari bilan belgilangan tartibda o'z vazifalarini vijdonan ijro qilish;

amaliy muloqot meyorlari va kasbiy odob-axloq tamoyillariga rioya qilish;

Bank xodimi tomonidan o'z xizmat vazifasini bajarish bilan bog'liq vaziyatda mijoz va/yoki uchinchi shaxsdan pul mablag'lari yoki pullik ekvivalentga aylantirilishi mumkin bo'lgan sovg'alarni qabul qilmaslikni ta'minlash;

manfaatlar to'qnashuvi paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lgan



harakatlar sodir etilishidan (yoki harakatsizlikdan) va qarorlar qabul qilinishidan saqlanish;

Bankning samarali boshqaruvini ta'minlash va Bank manfaatlarida harakat qilish;

Bank amaliyotlari va boshqa bitimlarni amalga oshirishda maksimal samaradorlikka erishish;

mijozning ehtimoliy xatosi tufayli ushbu holatdan Bank xodimlarining shaxsiy manfaatlarida foydalanishga yul qo'ymaslik. Shunday xatolik yuz berganda mijoz topshirig'ini bajarishdan avval uni, albatta, ogohlantirish;

aksiyadorlarning huquqlariga rioya qilinishini ta'minlash;

Bankning qonunga xilof faoliyatni amalga oshirishga jalb qilinish ehtimolini istisno qilish;

ichki va tashqi nazoratni Bank Ustavi va ichki qoidalari va hujjatlariga muvofiq amalga oshirish, shuningdek Bankning ichki nazorat tizimi kamchiliklarini aniqlashda ishtirok qilish;

yirik bitimlar va Bankning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish va tasdiqlash tartibiga tegishli qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish;

qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan tartibda bitimlar tuzish tug'risida qarorlar qabul qilishda Bank mulkning bozor qiymatini belgilash uchun tanlov asosida mustaqil baholovchini jalb qilish;

affillangan shaxslar to'g'risida ma'lumotlarning hisobga qo'yilishini ta'minlash;

Bank mansabdor shaxslarining boshqa tashkilotlar boshqaruv organlari va nazorat organlarida ishtirokining Bank Kuzatuv kengashi bilan kelishuvini ta'minlash;

qonunchilik hujjatlariga va Bankning ichki qoidalariga muvofiq majburiy oshkor qilinadigan axborot va boshqa axborotning o'z vaqtida, asosli va to'liq oshkor qilinishini ta'minlash;

Bankning maxfiy axboroti va insayderlik axborotidan foydalanish tartibiga qat'iy rioya qilinishni ta'minlash;

aksiyadorlarga, kontragentlarga, boshqaruv organlariga va boshqa manfaatdor shaxslarga, jumladan reklama maqsadlarida taqdim qilinadigan axborotlarning haqqoniyligini ta'minlash;

manfaatlar to'qnashuvining eng erta rivojlanish bosqichlarida o'z vaqtida aniqlanishini ta'minlash;

manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga shart-sharoit yaratuvchi holatlar paydo bo'lganligi to'g'risida yuqori mansabdor shaxsni yoki bank boshqaruv organini o'z vaqtida xabardor qilish;

mansabdor shaxs yoki uning oila a'zolari moliyaviy manfaatga ega va Bank tijorat faoliyatini birga yuritayotgan yoki yuritishni mo'ljallagan tashkilotlar to'g'risida yuqori mansabdor shaxsni yoki bank boshqaruv organini xabardor



qilish;

Bankning aniq va asoslangan nuqtai nazarini aksiyadorlar e'tiboriga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlash va nizo mavzusi bo'lish ehtimoliga ega masalalar bo'yicha to'liq axborotni taqdim qilish;

Bank boshqaruv organlari a'zolari mustaqil va tobe bo'lmagan holda harakat qilishi hamda har qanday masalarni hal etishda teng ovozlar soniga ega bo'lishi lozim;

bir-biriga nisbatan yaqin qarindoshlar bo'lgan shaxslar, hamda bir-biri bilan bevosita bo'ysunish munosabatlarida bo'lgan Bank xodimlari, bir vaqtning o'zida bank boshqaruv organlaridan birining tarkibida lavozimlarni egallashi mumkin emas;

Bank boshqaruv organlari a'zolarini rag'batlantirishni Bankning moliyaviy xolatidan kelib chikib amalga oshirish;

qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining obyektivligi va mustaqilligini ta'minlash uchun Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolar nomzodi ko'rsatilishiga intilish.

5-bob. Manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish



13. Bankda yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish uchun bank boshqaruv organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari Bank manfaatlariga javob beradigan qonuniy va asoslangan qarorlar qabul qilishlari lozim.

14. Bank Boshqaruvi mijozlar tomonidan bank boshqaruv organlari, korporativ maslahatchi va barcha tarkibiy bo'linmalarga kelib tushadigan murojaatlarning hisobini yuritilishi hamda o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlashi lozim.

Korporativ manfaatlar to'qnashuvining hisobini yuritish vazifasi Bankning korporativ maslahatchisiga yuklatiladi. Bankning korporativ maslahatchisi korporativ manfaatlar to'qnashuviga oldindan baho berib, masalaning mohiyatidan kelib chiqib unga oydinlik kirituvchi hujjatlarni tayyorlaydi va Bank Kuzatuv kengashi roziligi bilan ushbu masalani yechish vakolati mavjud tarkibiy tuzilmaga taqdim etadi.

Bankning korporativ maslahatchisi tez-tez takrorlanib turuvchi masalalarni tahlil qiladi, tahlil natijalari bo'yicha manfaatlar to'qnashuviga kirishgan barcha taraflarga qo'shimcha axborot berish yoki bermaslik to'g'risida qaror qabul qiladi va/yoki Bank Kuzatuv kengashiga bu kabi nizoli vaziyatni kelib chiqishiga sabab bo'layotgan ichki tartib va qoidalarni o'zgartirish, to'qnashuvini kelib chiqishini bartaraf etuvchi boshqa takliflar beradi.

15. Mijoz yoki boshqa manbalardan manfaatlar to'qnashuvi holati bo'yicha axborotga ega bo'lgan xodim zudlik bilan bu to'g'rida mansab lavozimi bo'yicha o'zidan yuqori xodimni ogohlantirishi shart. Agar nizoli vaziyat tarkibiy tuzilma miqyosida yechish imkoniyati bo'lmasa tarkibiy tuzilma rahbari bir ish kuni ichida



Bank Boshqaruvi raisini nizoli vaziyat, uning kelib chiqishiga sababchi bo'lgan omillar hamda uni bartaraf etish uchun ko'rilgan choralar to'g'risida ogohlantirishi shart. Bank Boshqaruvi raisi nizoli vaziyatni bartaraf etish usulini belgilaydi va mas'ul shaxs belgilaydi. Zarur hollarda esa nizoli vaziyatni bartaraf etish uchun komissiya tuzilishi mumkin.

16. Manfaatlarni to'qnashuvini bartaraf etish uchun belgilangan mas'ul xodim yoki komissiya nizoli vaziyatni bartaraf etishning barcha choralarini ko'radi. Agar uni bartaraf etish imkoniyati bo'lmasa, Bank Boshqaruvi raisi ushbu masalani Boshqaruv yig'ilishi muhokamasiga kiritadi va Bank Kuzatuv kengashiga to'liq axborot taqdim qiladi.

17. Bank Boshqaruvi tomonidan manfaatlarni to'qnashuvi bo'yicha taqdim qilingan axborot Bank Kuzatuv kengashi tomonidan manfaatlarni to'qnashuvining Bank faoliyatidagi ta'siri, uning hajmi va boshqa shu kabi ko'rsatkichlaridan kelib chiqib uning navbatdagi yig'ilishi muhokamasiga kiritadi yoki ushbu masalani zudlik bilan bartaraf etish maqsadida navbatdan tashqari yig'ilish chaqirishi mumkin.

18. Bank Boshqaruvi raisi Bank manfaatlariga ta'sir qiluvchi yoki ta'sir qilgan har qanday manfaatlarni to'qnashuvi to'g'risidagi axborot 3 (Uch) ish kuni muddatda Bank Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritilishi va uning bartaraf etish uchun qabul qilingan qaror ijrosini ta'minlash va nazorat qilish uchun aniq shaxslar belgilanishi lozim.

19. Vujudga kelgan manfaatlarni to'qnashuvini boshqarish va bartaraf etishda Bankning qabul qilingan ichki qoidalariga o'zgartirish kiritish yoki yangi qoidalar qabul qilinishi lozim bo'lsa bank boshqaruv organlari o'z vakolat doiralaridan kelib chiqib tegishli qaror qabul qilishlari lozim.

20. Bank boshqaruv organlari vujudga keladigan har qanday manfaatlarni to'qnashuvini bartaraf etish uchun quyidagilarni amalga oshirishlari lozim:


vujudga keladigan manfaatlarni to'qnashuvini imkon qadar tez aniqlashi va uning vujudga kelish sabablarini o'rganishi;

Bank boshqaruv organlari vakolatlari va javobgarligini aniq chegaralashlari;
manfaatlarni to'qnashuvini bartaraf etish bo'yicha mas'ul xodimni belgilashi, lozim hollarda esa komissiya tuzishlari;

imkon qadar tezkorlik bilan manfaatlarni to'qnashuvi bo'yicha Bankning manfaatlaridan kelib chiqib, uning qarashlarini aniqlash, Bank manfaatlarini himoyasi bo'yicha qarorlar qabul qilish va manfaatdor tараflarga yetkazish;

manfaati Bank manfaati bilan zid kelgan taraфga Bankning asoslangan nuqtai-nazari aks ettirilgan to'liq va asoslangan javob berish, manfaati zid tomonga ularning talablarini ijro etilmasligi bo'yicha qonunchilik hujjatlari, Bank Ustavi va/yoki ichki qoidalar talablaridan kelib chiqib, ularga asosan javob berish;

manfaatlarni to'qnashuvini bartaraf etishga ishtirok etuvchi mas'ul shaxslar ularning yoki ularning oila a'zolarining manfaatlarini ham keltirib chiqarishi



mumkin bo'lgan yoki keltirib chiqaradigan holatlar bo'yicha zudlik bilan ma'lum qilish;

manfaatdor shaxslarni manfaatlar to'qnashuvi holatlarini boshqarish va bartaraf etish jarayoniga ishtirok etmasligini ta'minlash.

21. Bank boshqaruvi organlari va aksiyadorlar o'rtasida vujudga keladigan korporativ manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish uchun quyidagilar amalga oshirilishi lozim:

Bankning vakolatli shaxsi aksiyadorlarning muzokaralarda ishtirok etishi, aksiyadorlarga o'z ixtiyoridagi va korporativ manfaatlar to'qnashuviga tegishli axborot va hujjatlarni taqdim qilishi, qonunchilik hujjatlari meyorlarini, Bank Ustavi va ichki qoidalarini tushuntirishi mumkin;

Bankning vakolatli shaxslari yoki vakolatli organlari aksiyadorlarga maslahatlar va tavsiyalar berishlari, nizoli vaziyatni bartaraf etish to'g'risidagi hujjatlar loyihalarini aksiyadorlar tomonidan imzolanishi uchun tayyorlashlari, Bank nomidan o'z vakolatlari doirasida aksiyadorlar oldida korporativ manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishga yordam berishi mumkin bo'lgan darajada majburiyatlar olishlari mumkin;

Bankning vakolatli organlari o'z vakolatlari doirasida nizoli vaziyatni bartaraf etish bo'yicha qabul qilingan qarorlarni ijro etishlari hamda bu qarorlarni boshqa taraflar tomonidan ijro etilishiga amaliy yordam ko'rsatishlari lozim. Nizoli vaziyat taraflari o'rtasida ularning asosiy majburiyatlari bo'yicha kelishmovchilik mavjud bo'lmagan, biroq ularni bajarish tartibi, usuli, muddatlari va boshqa shartlar to'g'risida kelishmovchilik yuzaga kelgan holatlarda, Bank nizoli vaziyat taraflariga yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni hal etishni taklif qilishi va Bank nizoli vaziyat taraflari talablarini qondirishga tayyor bo'lgan shartlarni ma'lum qilishi lozim.

22. Mazkur chora-tadbirlar ro'yxati uzil-kesil hisoblanmaydi. Har bir muayyan holatda manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelish mohiyatiga qarab nizoni hal qilishning o'zgacha shakllari bo'lishi mumkin.

6-bob. Yakuniy qoidalar

23. Ushbu Siyosat talablariga rioya qilinmagan mas'ullar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

24. Mazkur Siyosatga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

25. Mazkur Siyosat bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

26. Ushbu Siyosatning alohida bandlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga zid bo'lsa, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga amal qilinadi.

YURIDIK XULOSA
(ichki qoidani huquqiy ekspertizadan o'tkazish to'g'risida)

Toshkent shahar

“ 07 ” _____ 2025 yil

Ekspertiza o'tkazuvchi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning (keyingi o'rinlarda “Bank” deb yuritiladi) Yuridik boshqarmasi.

Ekspertizadan o'tkazilgan me'yoriy hujjat nomi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish siyosati (keyingi o'rinlarda “ichki qoida” deb yuritiladi).

Ekspertiza o'tkazishda foydalanilgan qonunchilik va me'yoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunlari, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida nizomi va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari, hamda “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning ustavi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlar (keyingi o'rinlarda “qonunchilik va me'yoriy hujjatlar”).

Mazkur ichki qoida qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Bankda manfaatlar to'qnashuvini yuzaga kelishini oldini olish hamda ehtimoliy (potensial) manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va uni bartaraf etish tartibini belgilaydi.

Ushbu ichki qoida ishlab chiqishda qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilingan.

Mazkur ichki qoida, agar unda boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, Bankning aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan kuchga kiradi.

Ushbu ichki qoidaga o'zgartirish va qo'shimchalar Bankning aksiyadorlarning umumiy yig'ilishning qarori asosida kiritiladi.

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqilishi belgilangan ichki qoidalar, shuningdek ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar tijorat banklari tomonidan tasdiqlangandan so'ng 15 (o'n besh) kun ichida Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

**“Open bank” aksiyadorlik jamiyatning
Yuridik boshqarmasi boshlig'i**

S.I. Salimov